

**IQTISODIY SIYOSATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
TUTGAN O‘RNI VA ISTIQBOLLARI**

*Kokand University
Andijon filiali talabasi
Uktamova Saidaxon*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iqtisodiy siyosatda raqamli texnologiyalarning o‘rni, ularning samaradorligini oshirishdagi roli hamda zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi, soliq tizimi, bank sohasi, eksport-import amaliyotlari kabi ko‘plab yo‘nalishlarda iqtisodiy siyosat vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Raqamli texnologiyalar, iqtisodiy siyosat, raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, bank sohasi, soliq tizimi, eksport-import, innovatsion rivojlanish, O‘zbekiston iqtisodiyoti, axborot texnologiyalari.*

Abstract. *This article analyzes the role of digital technologies in economic policy, focusing on their impact on efficiency and their influence on modern economic processes. Digital transformation is increasingly being used as an essential tool of economic policy in areas such as public administration, taxation, banking, and foreign trade. The article also explores Uzbekistan’s strategies for developing a digital economy and outlines the prospects for future development in this field.*

Keywords. *Digital technologies, economic policy, digital transformation, digital economy, public administration, banking sector, taxation system, foreign trade, innovative development, Uzbekistan’s economy, information technologies.*



***Абстрактный.** В данной статье рассматривается роль цифровых технологий в экономической политике, их влияние на повышение эффективности и трансформацию современных экономических процессов. Цифровая трансформация становится важным инструментом экономической политики в таких сферах, как государственное управление, налоговая система, банковский сектор и внешняя торговля. Также в статье анализируются стратегии развития цифровой экономики в Узбекистане и перспективные направления в данной области.*

***Ключевые слова.** Цифровые технологии, экономическая политика, цифровая трансформация, цифровая экономика, государственное управление, банковский сектор, налоговая система, внешняя торговля, инновационное развитие, экономика Узбекистана, информационные технологии.*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy siyosatga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda davlatlar raqamli transformatsiyani iqtisodiy barqarorlik va samaradorlikka erishishning muhim vositasi sifatida qo'llamoqda. Xususan, davlat boshqaruvi, soliq yig'imi, bank xizmatlari va tashqi savdoda raqamli yechimlardan foydalanish iqtisodiy jarayonlarning ochiqligi, tezligi va shaffofligini ta'minlamoqda. O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyotga o'tishni strategik yo'nalish sifatida belgilab, iqtisodiy siyosatini zamon talablariga mos ravishda yangilamoqda.

Asosiy qism

Raqamli texnologiyalar bugungi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveriga aylanmoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida, balki davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda ham tub burilish yasamoqda. Iqtisodiy siyosat esa mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. An'anaviy iqtisodiy siyosat fiskal, monetar, tashqi savdo va ijtimoiy siyosat kabi yo'nalishlarda amalga



oshirilgan bo'lsa, hozirda bu siyosat raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq holda qayta shakllanmoqda.

Raqamli transformatsiya iqtisodiyotga nafaqat texnologik yangiliklar olib kirdi, balki iqtisodiy siyosatning har bir segmentini zamonaviylashtirishga majbur qildi. Masalan, fiskal siyosat doirasida soliq yig'imlarini raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish, yashirin iqtisodiyotni aniqlash va byudjet daromadlarini oshirish imkoniyati mavjud. Monetar siyosatda esa raqamli valyutalar, blokcheyn asosidagi to'lov tizimlari, markaziy banklar tomonidan raqamli so'mlarning joriy qilinishi orqali yangi mexanizmlar paydo bo'lmoqda[1].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarning tezligini, shaffofligini va samaradorligini oshiradi. Masalan, elektron davlat xizmatlari iqtisodiy faoliyat subyektlarining ma'lumotlarga tezkor kirishini, soliq va litsenziya jarayonlarining soddalashtirilishini ta'minlab, iqtisodiy muhitni qulaylashtiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, bulutli texnologiyalar iqtisodiy siyosatning aniq prognozlar asosida yuritilishini ta'minlaydi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, elektron savdo, raqamli moliya, masofaviy mehnat, onlayn ta'lim, virtual xizmatlar kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Bu iqtisodiyot shakli an'anaviy ishlab chiqarish resurslariga kamroq tayanadi va ko'proq intellektual, raqamli kapitalga asoslanadi[2]. Shu sababli, davlatlar uchun raqamli texnologiyalarni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish global raqobatda ustunlikka erishishning asosiy omili hisoblanmoqda.

Bunday sharoitda davlatlar raqamli siyosatni iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaramoqda. Raqamli infratuzilma rivojlanishiga sarmoya kiritish, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli savodxonlikni oshirish, raqamli xavfsizlikni ta'minlash kabi vazifalar har bir rivojlanayotgan mamlakat kun tartibida turibdi. Ayniqsa, O'zbekiston singari transformatsion iqtisodiyotga ega davlatlar uchun raqamli texnologiyalar iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishda muhim vositadir.



Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy o'sish bilan bog'lovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Brynjolfsson va McAfee o'z tadqiqotlarida raqamli inqilob mehnat bozori, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilganlar[3]. Tapscott esa blokcheyn texnologiyalarining nafaqat moliya, balki davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosatda ham ochiqlik va ishonch muhitini yaratishdagi o'rni asoslab bergan[4].

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar iqtisodiy siyosatni innovatsion yondashuvlar bilan boyitmoqda. Bu jarayonni chuqur anglash va to'g'ri yo'naltirish mamlakatlarning global raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Bugungi global iqtisodiy makonda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy siyosatga samarali integratsiya qilish davlatlarning raqobatbardoshligini belgilab bermoqda. Ilg'or davlatlar o'z milliy siyosatlarini raqamli infratuzilmalar asosida shakllantirib, iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, innovatsion ekotizim yaratish orqali sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Bu tajribalarni o'rganish O'zbekiston singari rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

AQSh tajribasi. AQSh raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyodagi yetakchi davlatlardan biridir. Federal hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Digital Government Strategy" (2012-yil) strategiyasi asosida davlat xizmatlarini internet orqali taqdim etish, ochiq ma'lumotlar platformalarini kengaytirish va fuqarolarga qulaylik yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan[5]. AQSh hukumati sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, IoT kabi texnologiyalarni iqtisodiy boshqaruvga faol jalb qilmoqda. Masalan, soliq inspeksiyasi (IRS) elektron deklaratsiyalar, blokcheyn asosida audit nazorati kabi tizimlardan foydalanmoqda.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar AQShning soliq, monetar va bandlik siyosatlarida ham muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida fuqarolarga bir martalik kompensatsiyalarni tarqatishda raqamli moliyaviy infratuzilmalarning mavjudligi muhim rol o'ynadi[6].

Estoniya tajribasi. Estoniya kichik davlat bo'lishiga qaramay, raqamli iqtisodiyot va boshqaruvda ilg'or namuna hisoblanadi. Bu davlatda "e-Estonia"



konsepsiyasi asosida barcha davlat xizmatlari raqamlashtirilgan: tug‘ilishdan tortib, ovoz berishgacha bo‘lgan jarayonlar onlayn tarzda amalga oshiriladi[7]. Estoniya fuqarolari elektron ID kartalar orqali sog‘liqni saqlash, soliq to‘lash, ishga joylashish, bank xizmatlaridan foydalanishni to‘liq raqamli shaklda amalga oshiradi. Bu tizim korruptsiya darajasining kamayishi, byudjet xarajatlarining tejalishi va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keldi.

Estoniya tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar iqtisodiy siyosatni soddalashtirish va iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchni oshirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xitoy tajribasi. Xitoyda raqamli iqtisodiy siyosat davlat rejalashtirishining tarkibiy qismiga aylangan. 14-besh yillik reja (2021–2025) doirasida Xitoy sun‘iy intellekt, 5G, katta ma’lumotlar, raqamli to‘lov tizimlarini iqtisodiy siyosatga chuqur integratsiya qilishni maqsad qilgan[8]. Mamlakatda Alibaba, Tencent, Huawei kabi yirik texnologik kompaniyalar davlat siyosatini amalga oshirishda hamkorlik qiladi. Masalan, WeChat va Alipay ilovalari orqali to‘lov tizimlari, ijtimoiy sug‘urta, soliqlar va hatto kredit reytinglari nazorat qilinmoqda.

Xitoyning “Raqamli Ipak yo‘li” tashabbusi orqali esa boshqa mamlakatlarga raqamli infratuzilma eksport qilinmoqda. Bu Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatini ham raqamlashtirish orqali kuchaytirayotganini anglatadi.

Boshqa ilg‘or tajribalar Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar ham raqamli texnologiyalarni iqtisodiy siyosatga tatbiq etishda muvaffaqiyatli tajribaga ega. Jumladan, Singapurda Smart Nation dasturi doirasida raqamli identifikatsiya, bulutli davlat xizmatlari va aqlli shahar texnologiyalari asosida iqtisodiy samaradorlik oshirilmoqda[9].

Janubiy Koreyada esa raqamli sog‘liqni saqlash tizimi, masofaviy ta’lim, elektron soliqqa tortish tizimlari orqali pandemiya sharoitida iqtisodiy siyosat moslashuvchan va tezkor bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. 2017–2021 yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar va 2020-yildan boshlab



kuchaytirilgan raqamli transformatsiya siyosati mamlakat iqtisodiyotining zamonaviylashtirilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali iqtisodiy siyosatda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda[10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda imzolangan PF–6079-sonli Farmon orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Unga ko‘ra, 2030-yilga borib iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarning to‘liq joriy qilinishi nazarda tutilgan[11].

Bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda raqamli texnologiyalar iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog‘lanmoqda:

Fiskal siyosatda raqamlashtirish. Soliq ma’lumotlarining avtomatlashtirilishi, onlayn nazorat-kassa mashinalari (NKM), E-Soliq tizimi orqali soliq ma’urchiligida shaffoflik oshdi. Raqamli soliq nazorati “yashirin iqtisodiyot” hajmini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Soliq qo‘mitasi orqali joriy qilingan elektron hisob-faktura, onlayn buxgalteriya, QR-kodli cheklar iqtisodiy siyosatni yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda[12].

Davlat xarajatlari va moliyaviy siyosatda raqamli yechimlar. 2021-yildan boshlab byudjet xarajatlari bo‘yicha “Open Budget” platformasi joriy qilinib, fuqarolarga davlat xarajatlarini nazorat qilish imkoniyati yaratildi. Bu iqtisodiy siyosatning ochiqqligini va ijtimoiy ishonchni oshirdi. Bundan tashqari, Moliya vazirligi tomonidan elektron davlat xarid tizimi – “E-Xarid” amaliyoti orqali budjet mablag‘larining sarfi avtomatlashtirilmoqda[13].

Raqamli bank va to‘lov tizimlari. Markaziy bank tomonidan raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking, QR-kodli to‘lovlar keng joriy qilinmoqda. Hozirda “Humo” va “Uzcard” tizimlari orqali to‘lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda. Bu esa monetar siyosatni nazorat qilish, naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish imkonini bermoqda.

Tadbirkorlik va xizmatlar sohasida raqamlashtirish. “Yagona darcha” (my.gov.uz) tizimi orqali tadbirkorlar uchun ruxsatnomalarni elektron olish,



litsenziyalash jarayonlari soddalashtirilgan. Shuningdek, Davlat xizmatlari agentligi orqali 300 dan ortiq xizmat turlari raqamlashtirilgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatning qulayligini ta'minlamoqda[14].

O'zbekistonda raqamli siyosatni yuritishda mavjud infratuzilmalar va kadrlar salohiyatining yetarli darajada emasligi, internet tezligi va qamrovi, raqamli savodxonlikning pastligi kabi muammolar mavjud. Ammo bu borada ham qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Bir million dasturchi" loyihasi, "IT park"lar faoliyati, "Digital Uzbekistan" markazlari bu muammolarni bartaraf etish uchun asos yaratmoqda.

O'zbekiston raqamli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Xususan, Jahon banki, BMTning UNDP dasturi, ITU kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda tahliliy strategiyalar ishlab chiqilmoqda[15].

Xulosa

O'zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida yuritilayotgan iqtisodiy siyosat bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Garchi mavjud muammolar bo'lsa-da, tanlangan yo'nalish to'g'ri va zamonaviy global tendensiyalarga mos keladi. Kelgusida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, huquqiy bazani mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali iqtisodiy siyosatning samaradorligi yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OECD Digital Economy Outlook. 2020. // <https://www.oecd.org/digital/digital-economy-outlook-2020-bb167041-en.htm>
2. UNCTAD. Digital Economy Report. 2021. // <https://unctad.org/webflyer/digital-economy-report-2021>
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company. 2014. // <https://wwnorton.com/books/9780393239355>
4. Tapscott, D. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin. 2016. //



<https://www.penguinrandomhouse.com/books/317222/blockchain-revolution-by-don-tapscott-and-alex-tapscott>

5. White House. Digital Government: Building a 21st Century Platform to Better Serve the American People. 2012. //

<https://obamawhitehouse.archives.gov/sites/default/files/omb/egov/digitalgovernment/digital-government-strategy.pdf>

6. US Treasury. CARES Act Implementation. 2020. //

<https://home.treasury.gov/policy-issues/cares7>.

7. e-Estonia. The Digital Society. 2021. // <https://e-estonia.com/solutions/>

8. China State Council. Outline of the 14th Five-Year Plan. 2021. //

https://english.www.gov.cn/archive/publications/202103/13/content_WS604b7f35c6d0719374afafd1.html

9. Smart Nation Singapore. 2022. // <https://www.smartnation.gov.sg/>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-sonli Farmoni, 2020-yil 5-oktabr// Qonunchilik ma’lumotlari milliy ba’zasi: <https://lex.uz/docs/5053913>

11. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy ba’zasi: <https://president.uz/uz/lists/view/3948>

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti – E-Soliq tizimi // <https://soliq.uz>

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq byudjet” portali. // <https://openbudget.uz>

14. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. // <https://my.gov.uz>

15. World Bank. Digital Development in Uzbekistan. 2023. //

<https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/brief/digital-transformation>